

HARBIY MANSABDORLIK JINOYATLARI TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muxitdinov Sarvar Sattarovich

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi
tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada harbiy mansabdorlik jinoyatlarining nazariy-huquqiy jihatlari tahlil qilingan. Harbiy mansabdorlik jinoyatlarining tushunchasi, turlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Mazkur jinoyatlarning ob’yektiv va sub’yektiv belgilari, ularni kvalifikatsiya qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Harbiy mansabdorlik jinoyatlarining oldini olish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. “Harbiy mansabdor shaxs” tushunchasiga mualliflik ta’rifi berilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy mansabdorlik jinoyatlari, harbiy xizmat, harbiy mansabdor shaxs, hokimiyatni suiiste’mol qilish, harbiy boshqaruv

Kirish

Harbiy mansabdorlik jinoyatlari instituti jinoyat huquqining muhim va murakkab institutlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar orasida harbiy mansabdorlik jinoyatlari alohida o'rin tutadi. Chunki bu turdagi jinoyatlar nafaqat harbiy xizmat manfaatlariga, balki davlat boshqaruvi tizimiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois harbiy mansabdorlik jinoyatlarining nazariy-huquqiy jihatlarini chuqur o'rganish, ularning tushunchasi va turlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda ayniqsa harbiy mansabdorlik jinoyatlarining davlat xavfsizligiga ta'siri masalasi muhim. Fikrimizcha, bu turdagi jinoyatlar davlatning mudofaa qobiliyatini susaytiradi, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarlik darajasini pasaytiradi va umuman harbiy xizmatchilar orasida intizomsizlik muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, harbiy mansabdorlik jinoyatlari korrupsiyaga yo'l ochib, davlat mablag'larining noqonuniy sarflanishiga sabab bo'ladi.

Metodlar

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-strukturaviy tahlil tashkil etib, unda huquqiy pozitivizm va sosiologik yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy tahlil (turli olimlarning yondashuvlarini solishtirish), hujjatlarni tahlil qilish (qonunchilik normalari, ilmiy adabiyotlar va sud amaliyoti materiallarini o'rganish), nazariy modellashtirish (yangi tasniflar va ta'riflar ishlab chiqish) hamda tizimli yondashuv (jinoyatlarning ob'yektiv va sub'yektiv belgilari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash) metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi, maxsus yuridik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalar, sud amaliyoti materiallari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Natijalar

Huquqshunos olim B.V. Voljenkin mansabdorlik jinoyatlariga quyidagicha ta'rif beradi: “Mansabdorlik jinoyatlari – bu mansabdor shaxslar tomonidan o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etiladigan va davlat hokimiyati organlarining qonuniy faoliyatiga tajovuz qiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlardir” [1].

Fikrimizcha, mazkur ta'rifda mansabdorlik jinoyatlarining ob'yekti torroq talqin qilingan. Bunday jinoyatlar nafaqat davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga, balki fuqarolarning huquq va manfaatlariga ham tajovuz qiladi. Shu bois ularning ob'yektini kengroq tushunish maqsadga muvofiq.

A.Ya. Asnis esa yanada kengroq yondashuvni taklif qiladi. Uning fikricha, mansabdorlik jinoyatlari davlat xizmati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridagi xizmat manfaatlariga, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlarining qonuniy faoliyatiga tajovuz qiluvchi qilmishlardir[2].

Bizningcha, A.Ya. Asnisning yondashuvi mansabdorlik jinoyatlarining ijtimoiy xavfliligini to'liqroq aks ettiradi. Chunki bunday jinoyatlar nafaqat davlat organlari faoliyatiga, balki butun jamiyat manfaatlariga tajovuz qiladi.

V.N. Borkov esa mansabdorlik jinoyatlarining ob'yektini yanada boshqacharoq talqin qiladi. U davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni bunday jinoyatlarning asosiy ob'yekti sifatida ko'rsatadi[3].

Bizningcha, ushbu fikr bahsli hisoblanadi. Sababi, davlat funksiyalarini amalga oshirish jarayoni juda keng tushuncha bo'lib, u mansabdorlik jinoyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qamrab ololmaydi. Bundan

tashqari, bu yondashuv mansabdorlik jinoyatlarini boshqa turdagi jinoyatlardan farqlash imkonini bermaydi.

K.A. Kuznesova mansabdorlik jinoyatlarini tasniflashning o'ziga xos tizimini taklif qiladi. Uning fikricha, barcha mansabdorlik jinoyatlari ikki guruhga bo'linadi:

- davlat boshqaruvi sohasidagi jinoyatlar;
- maxsus xizmat sohasidagi jinoyatlar[4].

Fikrimizcha, ushbu tasniflash mansabdorlik jinoyatlarining huquqiy tabiatiga to'liq mos kelmaydi. Zero, bunday yondashuv harbiy mansabdorlik jinoyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmaydi.

N.A. Yegorova esa mansabdorlik jinoyatlarining ob'yektiv tomonini tahlil qilib, ularning uch asosiy shaklini ajratib ko'rsatadi:

- 1) hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilish;
- 2) vakolat doirasidan chetga chiqish;
- 3) harakatsizlik[5].

Bizningcha, bu tasniflash ancha asosli bo'lib, mansabdorlik jinoyatlarining mohiyatini to'g'ri aks ettiradi. Ayniqsa, harbiy mansabdorlik jinoyatlarini tahlil qilishda bu yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

O.K. Zatelepin harbiy mansabdorlik jinoyatlarini alohida toifa sifatida ajratib, ularning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Uning fikricha, "Harbiy mansabdorlik jinoyatlari harbiy boshqaruv organlarining Qurolli Kuchlar salohiyatini mustahkamlash manfaatlariga tajovuz qiladi"[6].

Fikrimizcha, O.K. Zatelepinning pozisiyasi harbiy mansabdorlik jinoyatlarining xususiyatlarini to'g'ri aks ettiradi. Biroq, bu yerda bir qator

qo‘shimcha belgilarni ham ko‘rsatish lozim. Xususan, bunday jinoyatlar harbiy xizmatchilarning huquqlariga ham tajovuz qiladi, harbiy intizomni buzadi.

Bizning tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, harbiy mansabdorlik jinoyatlarining salbiy oqibatlarini nafaqat Qurolli Kuchlar doirasida, balki butun jamiyat miqyosida namoyon bo‘ladi. Masalan, bunday jinoyatlar natijasida harbiy xizmatchilarning oilalari ham moddiy va ma‘naviy zarar ko‘radi, yoshlarning harbiy xizmatga bo‘lgan munosabati salbiy tomonga o‘zgaradi.

X.M. Axmetshin harbiy mansabdorlik jinoyatlarini uch guruhga ajratadi:

- 1) hokimiyatni suiiste‘mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlar;
- 2) xizmat vakolatidan tashqariga chiqish bilan bog‘liq jinoyatlar;
- 3) xizmatga sovuqqonlik bilan qarash[7].

Bizningcha, bunday tasniflash biryoqlama hisoblanadi. Chunki, u faqat qilmishning ob‘yektiv tomonidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Harbiy mansabdorlik jinoyatlarini tasniflashda qo‘shimcha mezonlarni ham inobatga olish lozim.

Metodologik jihatdan, harbiy mansabdorlik jinoyatlarini tasniflashda tizimli-strukturaviy yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv jinoyatning nafaqat ob‘yektiv tomonini, balki sub‘yektiv tomoni, ob‘yekti va sub‘yektining o‘zaro bog‘liqligini ham inobatga olish imkonini beradi. Bunday kompleks yondashuv jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini to‘g‘ri baholash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy olimlarimizdan M.X. Rustambayev ta‘kidlaganidek, harbiy mansabdorlik jinoyatlarining birinchi turi – hokimiyatni suiiste‘mol qilish – boshliq yoki boshqa mansabdor shaxsning o‘z hokimiyat yoki xizmat mavqeini

suiiste'mol qilishida ifodalanadi. Bunda Qurolli Kuchlarning manfaatlariga, harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqarolarning huquqlariga zarar yetkaziladi[8].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hokimiyatni suiiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarda quyidagi uchta belgi mavjud bo'ladi:

- a) harbiy mansabdor shaxs o'z vakolatlari doirasida harakat qiladi;
- b) bu harakatlar xizmat manfaatlariga zid;
- v) oqibatda jiddiy zarar yetkaziladi.

A.V. Brilliantov esa hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish jinoyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, ularning ikki shaklini ajratadi:

- a) vakolat doirasiga umuman kirmaydigan harakatlarni sodir etish;
- b) muayyan sharoitda amalga oshirish mumkin bo'lmagan harakatlarni sodir etish[9].

Ushbu yondashuv asosli bo'lib, harbiy mansabdorlik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, fikrimizcha, bu ro'yxatni yana bir shakl bilan to'ldirish lozim – bu yuqori turuvchi mansabdor shaxsning vakolatlarini o'zboshimchalik bilan amalga oshirish.

S.N. Shatilovich xizmatga sovuqqonlik bilan qarash jinoyatining ikki shaklini ajratadi:

- 1) xizmat vazifalarini umuman bajarmaslik;
- 2) lozim darajada bajarmaslik.

Mazkur olimning ta'kidlashicha, bu jinoyat ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladi[10].

Bizningcha, bunday yondashuv jinoyatning sub'yektiv tomonini to'liq ochib bermaydi. Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda xizmatga sovuqqonlik bilan qarash qasddan ham sodir etilishi mumkin.

I.M. Tyajkova esa bu jinoyatning quyidagi zaruriy belgilarini ko‘rsatadi:

- a) mansabdor shaxs o‘z vazifalarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- b) bajarilmagan vazifalar uning xizmat majburiyatlari doirasiga kirishi;
- v) og‘ir oqibatlar kelib chiqishi[11].

Fikrimizcha, bu pozisiya jinoyatning mohiyatini to‘g‘ri aks ettiradi. Ayniqsa harbiy sohada xizmat vazifalarini bajarish imkoniyati masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama

Harbiy mansabdorlik jinoyatlarining huquqiy tabiatini chuqurroq anglash uchun ularning ob‘yektiv va sub‘yektiv belgilari o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni tahlil qilish lozim. Bu turdagi jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ob‘yektiv tomondan qilmish rasman qonuniy ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin (masalan, buyruq berish, xizmat vakolatlarini amalga oshirish), ammo sub‘yektiv tomondan u harbiy xizmat manfaatlariga zid maqsadlarga qaratilgan bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida ushbu turdagi jinoyatlarning yuridik tarkibini aniqlashda alohida yondashuvni talab etadi.

O.K. Zatelepin harbiy mansabdorlik jinoyatlarining kvalifikatsiya qilish masalalarini tahlil qilib, bir qator muammolarni ko‘rsatadi. Xususan, bunday jinoyatlarni umumiy mansabdorlik jinoyatlaridan farqlash mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagan[12].

Fikrimizcha, bu masalada quyidagi mezonlarga tayanish lozim:

- a) jinoyat sub‘yektining maxsus maqomi;
- b) harbiy xizmat manfaatlariga tajovuz qilish;
- v) harbiy boshqaruv sohasidagi munosabatlarga zarar yetkazish.

Bu mezonlarda huquqiy pozitivizm va sosiologik yondashuvlarni uygʻunlashtirishga harakat qilingan. Chunki faqat normativ-huquqiy bazaga tayanish yetarli emas, balki jinoyatning ijtimoiy tabiatini ham hisobga olish lozim. Bu esa oʻz navbatida kriminologik omillarni ham tahlil qilishni talab etadi.

S.S. Avetisyan harbiy mansabdorlik jinoyatlarini tergov qilish amaliyotini oʻrganib, quyidagi muammolarni aniqlagan:

- 1) harbiy mansabdor shaxslarning vakolatlari doirasini aniqlashda qiyinchiliklar;
- 2) yetkazilgan zararining miqdorini baholash muammolari;
- 3) aybning shaklini toʻgʻri aniqlash masalalari[13].

Bu fikrlar asosli boʻlib, amaliyotda koʻp uchraydigan muammolarni aks ettiradi.

Milliy olimlarimizdan T.K. Mirzayev va R. Kabulov harbiy mansabdorlik jinoyatlarining oldini olish masalalariga alohida eʼtibor qaratadilar. Ularning fikricha, bunday jinoyatlarning profilaktikasi quyidagi yoʻnalishlarda olib borilishi kerak:

- a) harbiy mansabdor shaxslarni tanlash va joy-joyiga qoʻyish tizimini takomillashtirish;
- b) nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;
- v) harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish[14].

Bizningcha, bu takliflar muhim ahamiyatga ega. Biroq, ularni amalga oshirish mexanizmlarini yanada aniqroq belgilash lozim. Xususan, harbiy mansabdor shaxslarni tanlash mezonlarini, nazorat shakllarini va huquqiy tarbiya usullarini aniq koʻrsatish kerak.

Urush holatlarida sodir etiladigan harbiy mansabdorlik jinoyatlari alohida e'tiborni talab qiladi. D.N. Bakrayev ta'kidlaganidek, bunday sharoitda sodir etilgan jinoyatlar alohida ijtimoiy xavf tug'diradi va og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin[15].

I.A. Petruxin harbiy mansabdorlik jinoyatlarining sub'yektiv tomonini tahlil qilib, bu borada muhim xulosaga keladi. Olimning fikricha, bunday jinoyatlarda aybning shakli murakkab xarakterga ega bo'lib, qilmishga nisbatan qasd, oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik ko'rinishida namoyon bo'ladi[16].

Ushbu pozisiya harbiy mansabdorlik jinoyatlarining psixologik mexanizmini to'g'ri ochib beradi. Biroq, fikrimizcha, ayrim hollarda jinoyat to'g'ri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin.

B.T. Axmedov harbiy mansabdorlik jinoyatlarining maxsus prevensiyasi masalasini ko'taradi. U harbiy qismlarda profilaktika ishlarini kuchaytirish, harbiy mansabdor shaxslarning faoliyatini doimiy monitoring qilish tizimini joriy etish lozimligini ta'kidlaydi[17].

Bizningcha, bu takliflar amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, harbiy mansabdor shaxslar faoliyatini monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Bu masalaga ilmiy-nazariy jihatdan yondashadigan bo'lsak, harbiy mansabdorlik jinoyatlarining preventiv nazorati ikki darajada – institusional va funksional darajalarda amalga oshirilishi lozim. Institusional daraja tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni, funksional daraja esa amaliy chora-tadbirlar tizimini qamrab oladi. Bunday ikki bosqichli yondashuv profilaktika samaradorligini oshirishning nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi.

G.N. Isayev harbiy mansabdorlik jinoyatlarining tasnifini yanada takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. U bu jinoyatlarni ob’yektiga ko‘ra quyidagi guruhlariga ajratadi:

- a) harbiy boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar;
- b) harbiy mulkni boshqarish tartibiga qarshi jinoyatlar;
- v) harbiy xizmatchilarning huquqlariga qarshi jinoyatlar[18].

Bizningcha, bu tasniflash amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki u harbiy mansabdorlik jinoyatlarining ob’yektini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

V.V. Sverchkov harbiy mansabdorlik jinoyatlarining sub’yektiv tomonini yangicha talqin qiladi. Uning fikricha, bu jinoyatlarning motivi va maqsadi kvalifikatsiya uchun ahamiyatli emas, biroq jazo tayinlashda hisobga olinishi lozim[19].

Fikrimizcha, bu yondashuv bahsli hisoblanadi. Sababi, ayrim hollarda motiv va maqsad qilmishni to’g’ri kvalifikatsiya qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, g’arazli maqsadda sodir etilgan harbiy mansabdorlik jinoyatlari alohida kvalifikatsiyani talab qiladi.

Xulosa

Harbiy mansabdorlik jinoyatlarining nazariy-huquqiy tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi.

Birinchidan, “harbiy mansabdorlik jinoyatlari” tushunchasiga nisbatan quyidagicha mualliflik ta’rifini ilgari suramiz: “Harbiy mansabdorlik jinoyatlari – bu harbiy xizmatchi mansabdor shaxslar tomonidan o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda yoki vakolat doirasidan chetga chiqib, harbiy boshqaruv organlarining qonuniy faoliyatiga, harbiy xizmat manfaatlariga hamda harbiy

xizmatchilarning huquq va qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadigan qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlardir”.

Ikkinchidan, harbiy mansabdorlik jinoyatlarining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- maxsus sub’yekt (boshliq yoki boshqa harbiy mansabdor shaxs) tomonidan sodir etiladi;
- harbiy boshqaruv sohasidagi munosabatlarga tajovuz qilishga qaratilgan bo‘ladi;
- harbiy xizmat manfaatlariga, harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqarolarning huquqlariga zarar yetkazadi;
- qo‘shinlarning jangovar shayligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;
- harbiy intizomni buzishga olib keladi.

Uchinchidan, amaldagi qonunchilikda xususan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining “Atamalarning huquqiy ma’nosi” deya nomlangan sakkizinchi bo‘limiga “harbiy mansabdor shaxs” tushunchasiga nisbatan quyidagicha ta’rifni kiritish lozim:

“Harbiy mansabdor shaxs – bu O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, chegara qo‘shinlarida, ichki qo‘shinlarda va qonun bilan nazarda tutilgan boshqa harbiy tuzilmalarda doimiy, muddatli yoki safarbarlik bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tayotgan, bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilarga nisbatan buyruq berish vakolatiga ega bo‘lgan yoki harbiy mulkni tasarruf etish vakolati berilgan harbiy xizmatchi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Voljenkin B.V. Slujebnyye prestupleniya. M.: Yurist', 2000. S. 98
2. Asnis A.Ya. Slujebnoye prestupleniye: ponyatiye i sub'yekt. M.: YurInfoR, 2003. S. 45
3. Borkov V.N. Prestupleniya protiv osushchestvleniya gosudarstvennykh funktsiy, sovershayemye dolnostnymi lisami. Avtoref. dis. ... d-ra yurid. nauk. Omsk, 2015. S. 18
4. Kuznesova K.A. Klassifikatsiya dolnostnykh prestupleniy // Ugolovnoye pravo. 2018. №4. S. 45-46
5. Yegorova N.A. Teoreticheskiye problemy ugolovnoy otvetstvennosti za prestupleniya lis, vypolnyayuyshch upravlencheskiye funktsii. Volgograd, 2016. S. 156
6. Zatepin O.K. Kvalifikatsiya prestupleniy protiv voyennoy bezopasnosti gosudarstva. M., 2009. S. 288
7. Axmetshin X.M. Voyenno-ugolovnoye pravo. M., 2008. S. 384
8. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. T.5. 2018. S. 359
9. Brilliantov A.V. Dolnostnoye liso v ugolovnom zakonodatelstve Rossii. M., 2017. S. 123
10. Shatilovich S.N. Nauchnyye osnovy kvalifikatsii prestupleniy. 2015. S. 285
11. Tyajkova I.M. Neostorojnyye prestupleniya s ispolzovaniyem istochnikov povyshennoy opasnosti. SPb., 2019. S. 167
12. Zatepin O.K. Ugolovno-pravovaya ohrana voyennoy bezopasnosti Rossiyskoy Federatsii. 2013. S. 57

13. Avetisyan S.S. Voinskiye prestupleniya: teoriya i praktika. 2021. S. 234
14. Mirzayev T.K., Kabulov R. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. 2005. S. 125
15. Bakrayev D.N. Voenno-ugolovnoye zakonodatelstvo v boyevoy obstanovke. 2019. S. 178
16. Petruxin I.A. Sub'yektivnaya storona voinskix prestupleniy. 2020. S. 145
17. Axmedov B.T. Profilaktika prestupleniy protiv voyennoy slujby. 2021. S. 198
18. Isayev G.N. Sovremennyye problemy kvalifikatsii voinskix dolnostnyx prestupleniy. 2022. S. 167
19. Sverchkov V.V. Voenno-ugolovnoye pravo: teoriya i praktika. 2023. S. 234